



ISSN: 3060-4613



MAKTABGACHA
VA MAKTAB
TA'LIMI VAZIRLIGI



№7
2025

- 13.00.00 Pedagogika fanlari
- 13.00.01 Pedagogika nazariyasi. Pedagogik ta'limotlar tarixi
- 13.00.02 Ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi (sohalar bo'yicha)
- 13.00.03 Maxsus pedagogika
- 13.00.04 Jismoniy tarbiya va sport mashg'ulotlari nazariyasi va metodikasi
- 13.00.05 Kasb-hunar ta'limi nazariyasi va metodikasi
- 13.00.06 Elektron ta'lim nazariyasi va metodikasi (ta'lim sohaları va bosqichlari bo'yicha)
- 13.00.07 Ta'limda menejment
- 13.00.08 Maktabgacha ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi
- 13.00.09 Ijtimoiy pedagogika
- 07.00.00 Tarix fanlari
- 19.00.00 Psixologiya fanlari
- 01.00.00 Fizika-matematika fanlari
- 02.00.00 Kimyo fanlari
- 03.00.00 Biologiya fanlari
- 09.00.00 Falsafa fanlari
- 10.00.00 Filologiya fanlari
- 11.00.00 Geografiya fanlari

M

AKTABGACHA VA AKTAB TA'LIMI

Pedagogika, psixologiya fanlariga ixtisoslashgan ilmiy jurnal



MAKTABGACHA VA MAKTAB TA'LIMI



*Elektron nashr. 418 sahifa,
1-iyul, 2025-yil.*

BOSH MUHARRIR:

Umarova H. O'. – O'zbekiston Respublikasi Maktabgacha va maktab ta'limi vazirligi

BOSH MUHARRIR O'RINBOSARI:

Karimova E'zoza Gapirjanovna – Nizomiy nomidagi O'zbekiston milliy pedagogika universiteti rektori

Ibragimova Gulsanam Ne'matovna – Pedagogika fanlari doktori, professor

TAHRIRIYAT KENGASHI A'ZOLARI

Ibragimov X.I. – pedagogika fanlari doktori, akademik

Shoumarov G.B. – psixologiya fanlari doktori, akademik

Qirg'izboyev A.K. – Tarix fanlari doktori, professor

Jamoldinova O.R. – pedagogika fanlari doktori, professor

Sharipov Sh.S. – pedagogika fanlari doktori, professor

Shermuhammadov B.Sh. – pedagogika fanlari doktori, professor

Ma'murov B.B. – pedagogika fanlari doktori, professor

Madraximova F.R. – pedagogika fanlari doktori, professor

Kalonov M.B. – iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Nabiyev D.X. – iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Qo'ldoshev Q. M. – iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Ikramxanova F.I. – filologiya fanlari doktori, professor

Ismagilova F.S. – psixologiya fanlari doktori, professor (Rossiya)

Stoyuxina N.Yu. – psixologiya fanlari nomzodi, dotsent (Rossiya)

Magauova A.S. – pedagogika fanlari doktori, professor (Qozog'iston)

Rejep O'zyurek – psixologiya fanlari doktori, professor (Turkiya)

Wookyu Cha – Koreya milliy ta'lim universiteti rektori (Koreya)

Polonnikov A.A. – psixologiya fanlari nomzodi, dotsent (Belarus)

Mizayeva F. O. – Pedagogika fanlari doktori, dotsent

Baybayeva M.X. – pedagogika fanlari doktori, professor

Muxsiyeva A.T. – pedagogika fanlari doktori, professor

Aliyev B. – falsafa fanlari doktori, professor

G'afurov D. O. – falsafa fanlari doktori (Phd)

Shomurodov R.T. – iqtisodiyot fanlari nomzodi (PhD), dotsent

Mirzayeva F.O. – pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent

Jalilova S.X. – psixologiya fanlari nomzodi (PhD), dotsent

Bafayev M.M. – psixologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent

Usmonova D.I. – Samarqand iqtisodiyot va servis instituti dotsenti

Saifnazarov I. – falsafa fanlari doktori, professor

Nematov Sh.E. – pedagogika fanlari nomzodi (PhD)

Tillashayxova X.A. – psixologiya fanlari nomzodi (PhD), dotsent

Yuldasheva F.I. – pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent

Doniyorov S. M. – “Yangi O'zbekiston” va “Pravda Vostoka” gazetalar tahririyati DM bosh muharriri, O'zbekiston Respublikasida xizmat ko'rsatgan jurnalist, filologiya fanlari nomzodi (PhD)

Yuldasheva D.B. – filologiya fanlari bo'yicha falsafa (PhD) doktori, dotsent

Tangriyev A. T. – Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti kafedra professori

Ashurov R. R. – psixologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Panjiyev M. A. – Qashqadaryo viloyati Maktabgacha va maktab ta'limi boshqarmasi boshlig'ining birinchi o'rinbosari

Xudayberganov N. A. – Xorazm Ma'mun akademiyasi Tabiiy fanlar bo'limining katta ilmiy xodimi, biologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Muassis: “Tadbirkor va ishbilarmon” MChJ

Hamkorlarimiz: O'zbekiston Respublikasi Maktabgacha va maktab ta'limi vazirligi, O'zbekiston milliy pedagogika universiteti

EDITOR-IN-CHIEF:

Umarova H. O'. – Minister of Perschool and School Education of the Republic of Uzbekistan

DEPUTY EDITOR-IN-CHIEF:

Ibragimova Gulsanam Ne'matovna – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Karimova E'zoza Gapirzhanovna – Rector of the Nizami National Pedagogical University of Uzbekistan

EDITORIAL BOARD MEMBERS:

Ibragimov X.I. – Doctor of Pedagogical Sciences, Academician

Shoumarov G'. B. – Doctor of Psychological Sciences, Academician

Qirg'izboyev A. K. – Doctor of Historical Sciences, Professor

Jamoldinova O.R. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Sharipov Sh.S. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Shermuhhammadov B.Sh. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Ma'murov B.B. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Madraximova F.R. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Kalonov M.B. – Doctor of Economic Sciences, Professor

Nabiyev D.X. – Doctor of Economic Sciences, Professor

Koldoshev K. M. – Doctor of Economic Sciences, Professor

Ikramxanova F.I. – Doctor of Philological Sciences, Professor

Ismagilova F.S. – Doctor of Psychological Sciences, Professor (Russia)

Stoyuxina N.Yu. – Candidate of Psychological Sciences (PhD), Associate Professor (Russia)

Magauova A.S. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor (Kazakhstan)

Rejep O'zyurek – Doctor of Psychological Sciences, Professor (Turkey)

Wookyu Cha – President of the National University of Education, Korea (South Korea)

Polonnikov A.A. – Candidate of Psychological Sciences (PhD), Associate Professor (Belarus)

Mizayeva F. O. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Baybayeva M.X. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Muxsiyeva A.T. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Aliyev B. – Doctor of philosophy, professor

Gafurov D. O. – Doctor of Philosophy (PhD)

Shomurodov R.T. – Candidate of Economic Sciences (PhD), Associate Professor

Mirzayeva F.O. – Doctor of Philosophy in Pedagogical Sciences (PhD), Associate Professor

Jalilova S.X. – Candidate of Psychological Sciences (PhD), Associate Professor

Bafayev M.M. – Doctor of Philosophy in Psychological Sciences (PhD), Associate Professor

Usmonova D.I. – Associate Professor, Samarkand Institute of Economics and Service

Saifnazarov I. – Doctor of philosophy, professor

Nematov Sh.E. – Candidate of Pedagogical Sciences (PhD)

Tillashayxova X.A. – Candidate of Psychological Sciences (PhD), Associate Professor

Yuldasheva F.I. – Doctor of Philosophy in Pedagogical Sciences (PhD), Associate Professor

Doniyorov S. M. – Editor-in-Chief of the Editorial Board of the newspapers "Yangi Uzbekiston" and "Pravda Vostoka", Honored Journalist of the Republic of Uzbekistan, Candidate of Philological Sciences (PhD)

Yuldasheva D.B. – Doctor of Philosophy (PhD) in Philological Sciences, Associate Professor

Tangriyev A.T. – is a professor of Tashkent State University of Economics

Ashurov R. R. – doctor of philosophy (PhD) in psychology

Panjiyev M. A. – First Deputy Head of the Department of Preschool and School Education of the Kashkadarya Region

Khudaiberganov N. A. – Senior Researcher of the Department of Natural Sciences of the Khorezm Mamun

Academy, Doctor of Philosophy (PhD) in Biological Sciences

"Maktabgacha va maktab ta'limi" jurnali O'zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasining quyidagi qarorlariga asosan pedagogika va psixologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) hamda fan doktori (DSc) ilmiy darajasiga talabgorlarning dissertatsiyalaridagi asosiy ilmiy natijalarni chop etish uchun milliy ilmiy nashrlar ro'yxatiga kiritilgan:

Pedagogika fanlari bo'yicha: OAK Kengashi tavsiyasi (26.08.2024-y., №11-05-4381/01) asosida:

- Ekspert kengashi (29.10.2024-y., №10)
- Rayosat qarori (31.10.2024-y., №363/5)

Psixologiya fanlari bo'yicha: Toshkent davlat pedagogika universiteti murojaatiga asosan OAK tavsiyasi (24.04.2025-y., №11-05-2566/01):

- Ekspert kengashi (25.05.2025-y., №10)
- Rayosat qarori (08.05.2025-y., №370/5)

"Maktabgacha va maktab ta'limi" jurnali

26.09.2023-yildan

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan **№C-5669363** reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.

Litsenziya raqami: **№136361**

MUNDARIJA

Konvergent tahririyat mas'uliyati: Yangi O'zbekistonni barpo etish jarayonini yoritish tendensiyalari	16
Doniyorov Salim Musurmonovich	
Boshlang'ich sinf o'quvchilarining ijodiy bilimlarini shakllantirish.....	23
Nazarov Odil Omanqulovich	
"Uzluksiz ma'naviy tarbiya konsepsiyasi"da ijtimoiy-pedagogik hamkorlikning o'rni	27
Abirova Umida Nazarovna	
Maktabgacha yoshdagi bolalarda uchraydigan nutq nuqsonlarini oldini olish va uning ahamiyati	30
Akramov Dostonbek Ikromjon o'g'li	
Pedagogik jarayonda axloqiy qarashlarni shakllantirish usul va vositalari	34
Xudoykulova Shaxlo Mamaniyozovna	
Maktabgacha ta'lim tashkiloti tarbiyachilarining ijodkorligini rivojlantirishda ta'limiy o'yinlarning ahamiyati	38
Salimova Dilmira Farxodovna	
Aholining iqtisodiy axborot savodxonligini oshirishdagi muammo va kamchiliklar	41
Rajabov Asliddin Xolmirzayevich	
Favqulodda vaziyatlar yo'nalishi ta'limida muloqotning ahamiyati.....	44
Boltayev Baxtiyor Yunusovich	
Biologiya ta'limi va raqamli texnologiyalar	48
E. Po'latova	
Boshlang'ich ta'limga tayyorlov guruhi bolalarini kasbga yo'naltirishda stem yondashuvining ahamiyati ...	51
Egamova Ravshanoy Surobjonovna	
O'zbekiston TIMSS natijalarini qanday yaxshilashi mumkin?	
Innovatsion ta'lim yondashuvlari va samarali strategiyalar.....	55
G'ayniddinov Shayxislom Tolibjon o'g'li	
Nutq kamchiliklarini bartaraf etishda mutaxassislar hamkorligi	60
Isayeva Mushtariy Alisher qizi	
Developing Student's Critical Skills Through Technology-Enhanced English Lessons	63
Mavlonova Dildora Shuxrat qizi	
Bahrom Ro'zimuhammad she'rlarini o'qitishda integratsiya usulidan foydalanish	67
Nomozova Dilobar Suyun qizi	
Aksiologik yondashuvlar asosida bo'lajak pedagoglarda altruizm ko'nikmalarini shakllantirish: bosqichlar va tamoyillar	72
Norboyeva Moxigul Shavkat qizi	
3D Modeling of Virtual Chemical Laboratories	75
Qayumov Jamshid Ma'rufjon o'g'li	
Fostering Metacognitive Skills in Efl Learners Through Ai-Supported Instruction: a Review of Recent Literature	80
Ruzieva Maftuna	
Onlayn va gibril ta'lim sharoitida mashinasozlik texnologiyasi faniga qiziqishni oshirishning nazariy asoslari.....	85
Sarimsakova Soxibaxon Raxmonjanovna	
Loyihalashtirilgan integral darslar samaradorligi (9-sinflar uchun "Metallar va ularning umumiy xususiyatlari" mavzusida)	88
Sharipova Hakima Shavkatovna	
Metacognition and Self-Regulated Learning	92
Turayeva Nazira Ibragimovna	
Методические возможности совершенствования обучения научной письменной речи на основе коммуникативно-деятельностного подхода	95
Меденцева Наталья Петровна	
Transformatsion jarayonlarda tibbiyot oliy ta'lim muassasalari raqobatbardoshligini oshirish strategiyalari	100
Jonibekov Jasur Jonibekovich	



O'zbek milliy musiqasi: boy madaniyat va san'atning ajralmas qismi.....	105
Rustamova Maxsuma Farxodbek qizi	
Sharq va G'arbda tibbiyot fanlarining yaratilishi tarixi.....	108
Bakayev Najmiddin	
Didaktik o'yinlar bola faoliyatining asosiy vositasi sifatida.....	112
Egamova Madina Qobil qizi	
Tibbiyot oliy ta'lim muassasalari talabalarining konvergent-kreativ tafakkurini takomillashtirishning didaktik asoslari.....	116
Egamova Shukriya Amanovna	
Boshlang'ich sinf o'quvchilarida universal ta'lim faoliyatlari orqali tarbiyaviy maqsadlarga erishish imkoniyatlari	119
G'aybullayeva Nafisaxon Nosirjon qizi	
Matematika o'qitishning klassik metodlaridan zamonaviy usullarga o'tish	124
G'ofurov Jamoliddin Xusniddinovich	
Jahon miqyosida maktabgacha ta'lim tizimini rivojlantirishning ustuvor yo'nalishlari	128
Hoshimova Dilnoza Boymirzoyevna, Mahmudova Zulfiya Homidovna	
Bo'lajak o'qituvchilarning prognostik kompetensiyasini rivojlantirish tamoyillari.....	131
Ikromova Munisa Sheraliyevna	
Bo'lajak muhandislarni kasbiy tayyorgarligini grafik ma'lumotlar asosida oshirishning didaktik asoslari	134
Jumanazarova Zuhra Qosimjonovna	
Sport va jismoniy tarbiya pedagogikasida innovatsion metodlar	138
Jumanova Iroda Shokirjon qizi	
Boshlang'ich sinf o'quvchilarining mustaqil fikrlash qobiliyatini rivojlantirish	141
Jumayeva Sarvinov Ilhombekovna	
Talabalarda nutqiy tarkibiy tuzilmalarni shakllantirish texnologiyasi	145
Kiyamova Maxbuba Sultanovna	
Innovatsion yondoshuv asosida boshlang'ich sinf o'quvchilarining fikrlash qobiliyatini rivojlantirishning amaliy jihatlarini	148
Mamadiyev Jamol	
Ingliz tili matnlarini o'rganishda 6-sinf o'quvchilarining grammatik kompetensiyasini oshirish va tatbiq qilishning samarali usullari.....	152
Sharipova Firuza Mehriddinovna	
Kar va zaif eshituvchi yuqori sinf o'quvchilarining axborot kompetensiyasini rivojlantirish modeli	155
Tursunov Hojiakbar Hamidullo o'g'li	
Maktabgacha ta'limda shaxsga yo'naltirilgan ta'lim – pedagogik muammo sifatida.....	159
Xallovkova Maksudaxon Ergashevna	
Altruistik xulq-atvorning shaxsiy va ijtimoiy determinantlari.....	162
Xatamova Ferangiz Ibodulloyevna	
Bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarining kasbiy-pedagogik mahoratini teatr pedagogikasi vositalari orqali rivojlantirishning xorijiy va milliy tajribasi	166
Xudoyberganova Matluba Qulsoxatovna	
Refleksiv yondashuvning ta'lim jarayonidagi o'rni va afzalliklari.....	170
Yodgorova Gulrux Farhodovna	
Совершенство методики формирования компетентности будущих студентов-искусствоведов в условиях цифрового образования.....	174
Юлдашев Эргаш Сабинович	
O'z-o'zini rivojlantirish tushunchasi va uning pedagogik mohiyati.....	177
Kudenov Temurbek Maxsetbaevich	
Boshlang'ich sinf o'qish darslarida hikoya janrini o'qitishda zamonaviy texnologiyalardan foydalanish dolzarb muammo sifatida	180
Ergasheva Shoxida Nurmuxammadovna	
Ingliz tili darslarini interaktiv tashkil etishda raqamli ta'lim vositalarining o'rni va metodik yondashuvlar	185
Raxmatullayeva Barno Baxtiyor qizi	
The Effectiveness of Using Podcasts to Enhance Listening Comprehension and Vocabulary Acquisition in Secondary School English Classes	189
Meliboyev Zuxriddin Isroil ugli	



O'zbekiston tarixi darslarida pedagogik improvizatsiyani texnologiyalashtirish va raqamlashtirish imkoniyatlari	192
<i>Ergasheva Muhayyoxon G'anijonovna</i>	
Tasviriy faoliyat vositasida maktabgacha yoshdagi bolalarning badiiy-ijodiy qobiliyatlarini rivojlantirish metodikasini takomillashtirishning samaradorligi.....	196
<i>Arslanova Umidaxon Komiljon qizi</i>	
Baxtli pedagoglar sirlari yoki kasbdagi subyektiv farovonlik	201
<i>Adilova Zulfiya Djavdatovna</i>	
Ayollarning siyosiy faolligini oshirishda gender kvotalarining o'rni	204
<i>Abdukaxorova O'g'iloy Isroiljon qizi</i>	
The Content of Developing Students' Communicative Culture Through a Bilingual Approach	207
<i>Abdukhaliyeva Feruzakhon Ulugbek kizi</i>	
Maktabgacha yoshdagi nutqida kamchiligi bo'lgan bolalar so'zlashuv nutqini shakllantirishda o'yin texnologiyalaridan foydalanish ahamiyati.....	210
<i>Abdullayeva Ugiloy Djurayevna</i>	
Chet tili intellektual va kasbiy rivojlanish kaliti	214
<i>Aripova Sayida Abdullaxatovna</i>	
Raqamli etiket: zamonaviy ta'limda yangi madaniyat talabi	217
<i>Rasuljon Atamuratov</i>	
Raqamli xiyonat: zamonaviy munosabatlar va sodiqlik inqirozi.....	221
<i>Azizova Shodiya Utkur qizi</i>	
Badiiy tarjimada leksik birliklarning lingvomadaniy aspektlari	224
<i>Mardiyeva Maxbuba Shavkatovna</i>	
O'quvchilarda funksional savodxonlikni rivojlantirishga yo'naltirilgan dasturiy platformani pedagogik loyihalash.....	228
<i>Obloqulov Sulaymon Maxmayusuf o'g'li</i>	
Kurashchilar orasida jarohatlarning oldini olish: reabilitatsiya va profilaktik uslublar	232
<i>Ochilova Sarvinoz Salim qizi</i>	
Xalq og'zaki ijodi vositasida bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarini o'quvchilarning o'qish savodxonligini rivojlantirishga tayyorlashning pedagogik-psixologik jihatlari	236
<i>Oxunova Nozimaxon Mirzag'ulom qizi</i>	
Loyiha asosidagi o'qitish orqali yoshlarda liderlik qobiliyatini rivojlantirish usullari.....	239
<i>Risvayeva Charos Zaydilla qizi</i>	
Maktabgacha yoshdagi bolalarga ingliz tilini o'yinlar vositasida o'rgatishga qaratilgan mashq va topshiriqlarning samaradorligi	242
<i>Toshniyozova Dildora, Meliyeva Nargizaxon</i>	
Bo'lajak o'qituvchilarni tarixiy va ma'naviy ideallarga aksiologik munosabatini rivojlantirish modeli	245
<i>Tursunova Dilnoza Adhamjon qizi</i>	
Shaxs rivojlanishida pedagogika va psixologiyaning o'rni	248
<i>Umirova Guldon Jamoliddin qizi</i>	
Toshkent shahri havosi ifloslanishining sabablari va oldini olish choralari	251
<i>Ungalov Akmal Navruzovich</i>	
Sun'iy intellekt asosida tuzilgan interaktiv platformalar va ulardan foydalanuvchi tajribasi	254
<i>Xabirova Zulfiya Anvarbekovna</i>	
Talabalar ijtimoiy faollik indeksini rivojlantirishda tyutorlik faoliyatining o'rni va ahamiyati	257
<i>Xamrakulov Jasurbek Muxammadjon o'g'li</i>	
Hozirgi davr pedagogikasida sharqona ta'limning ahamiyati.....	260
<i>Yuldasheva Mastura Islamovna</i>	
Пословицы и поговорки как отражение картины мира	263
<i>Алламбергенова Шахноза Садатдиновна</i>	
Raqamlashtirish sharoitida talabalarning mustaqil ta'lim olish kompetensiyasini rivojlantirishda mustaqil ta'limning o'rni	268
<i>Abdumannopov Muhammadsahib Muhammadyusuf o'g'li</i>	
Bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarini kasbiy-kreativ kompetensiyalarini rivojlantirishning o'ziga xos xususiyatlar.....	272
<i>Khadicha Mukhamadiyeva Karomatovna</i>	



Zamonaviy didaktik yondashuv asosida bo'lajak o'qituvchilarning analitik va ijodiy ko'nikmalarini rivojlantirish.....	277
Mo'minova Gulhayo Turg'unboy qizi	
Kompetensiyaviy yondashuv asosida bo'lajak o'qituvchilarni tyutorlik faoliyatiga tayyorlashning pedagogik shart-sharoitlari	280
O'rinova Nilufar Muhammadovna	
Aholi o'rtasida yoshlarning pedagogik intervensiyalar orqali ilmiy faolligini oshirish va sog'lom turmush tarzini shakllantirish metodikasi.....	286
Raximov Xasanboy Kamoliddin o'g'li	
Buyuk ipak yo'li – yangi geosiyosiy va iqtisodiy aloqalarning tarixiy asosi sifatida.....	290
Tugalova Madina Erkin qizi	
Ilk maktabgacha yoshdagi bolalarda sensor tarbiya.....	293
Umarova Muyassarxon A'zamjonovna	
Rus tilida o'qish ko'nikmalarini rivojlantirishning nazariy-metodik asoslari	297
Xanova Dilrabo	
Didactic Possibilities of Teaching English in Primary Schools Based on 3D Interactive Technologies	303
Kholiqova Lutfiya Umurzoqovna	
Raqamli dasturiy vositalari asosida organik kimyo fanini o'qitish jarayonlarini loyihalashtirish modeli	306
Ametova Guljamila Elbrusovna	
Talabalarda informatsion-analitik kompetentlikni rivojlantirishning amaliy asoslarini takomillashtirish	310
Baydjanov Bekzod Xaitboyevich	
Aksiologik yondashuv asosida o'quv mashg'ulotlarini tashkil etishning til o'rganish jarayonidagi ahamiyati.....	314
Choriyeva Feruza Amrullayevna	
Ibrayim Yusupovning "Saksovu" she'rini o'qitish metodikasi	317
Darmonov Allayar Abdilxaq uli	
Innovatsion ta'lim sharoitida talabalarning madaniyatlararo kompetensiyalarini rivojlantirish metodikasi....	320
Ergasheva Anbar Shaymardan qizi	
Oiladagi zo'ravonlik: sabablari, oqibatlari va psixologik yondashuvlar	324
Jo'rayeva Kaniza Akbarali qizi	
Darsda talabalar nutqiy qobiliyatini shakllantirish masalalari.....	329
Kamoliddinova Maftuna Xusniddin qizi	
Nodavlat ta'lim tashkilotlari o'quvchilarida kreativlikni shakllantirishni boshqarish	334
Nasriddinov Xasan Baxtiyor o'g'li	
Nutq nuqsoniga ega bolalarni maktabga tayyorlashda psixologik aspektlar va pedagogik yondashuvlar ...	339
Normatova Maftuna Kengash qizi, Kamolova Gulshoda Jobir qizi	
Talabalarni ma'naviy tarbiyalash diagnostikasining psixologik va pedagogik manbalardagi talqini	346
Saotmuratova Zebo Yuldash qizi	
OTM talabalarning tanqidiy fikrlashini rivojlantirishning tashkiliy va pedagogik shart-sharoitlari.....	350
Tokumbetova Mexribonu Shavkat qizi	
Ma'naviy yetuklik sari: jadid adabiyotining o'rni.....	356
Abdullayev Ro'zimuxammad Akramjon o'g'li	
Nemis tilida derivatsion leksik birliklarning o'qitishning lingvodidaktik asoslari	361
Abduraxmanov Sirojiddin Muminkulovich	
Bo'lajak o'qituvchilarda baholash madaniyatini shakllantirish: adolatli, obyektiv va motivatsiyalovchi baholashga tayyorlash	365
Boymirzayev Farxodjon Raxmatjon o'g'li	
Maktab ta'limida ko'paytirishning qulay usullari.....	371
Ergasheva Shahlo Shoabdullo qizi	
Sensor integratsiya buzilishlari bolaning nutq, harakat va hissiy rivojlanishiga ta'siri	375
Isayeva Mushtariy Alisher qizi	
Inson jamiyatdagi ish faoliyatida va psixologiyasida sportning o'rni.....	378
Isoqov Nuriddin Halim o'g'li	
Bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarini integrativ o'qitishga metodik tayyorgarligini takomillashtirish	382
Jo'rayeva Nargiza Jamolidinovna	
Обучение дошкольников иностранному языку в различных видах неречевой деятельности	386
Марасулова Доно Нигматуллаевна	

Til o'rgatishda matnning didaktik va kommunikativ ahamiyati	389
Ungarbayeva Ayman Davletbayevna	
Munavvarqori Abdurashidxonov – jadidchilik harakatining ma'rifatparvar yo'lboshchisi	393
Xasanboyeva Ruxshona Nurmatjon qizi	
Dars jarayonida o'quvchilarning tanqidiy fikrlashini shakllantirish	396
Yulchiyeva Shoxsanam	
Особенности использования современных педагогических технологий в преподавании естественных наук в общеобразовательной школе	399
Мажидова Мадина Фархадовна, Мажидов Шерзод Фархадович	
Повышение информационной грамотности и формирование информационной культуры студентов в среде дистанционного обучения.....	403
Р. К. Аюезова	
Воздействие медиа в контексте социального формирования личности.....	407
Хайдарова Гулинур Нурбек кизи	
Теоретические основы развития интеллектуальных способностей студентов	411
Чинкулова Гулмехра Бахроновна	

INSON JAMIYATDAGI ISH FAOLIYATIDA VA PSIXOLOGIYASIDA SPORTNING O'RNI

Isoqov Nuriddin Halim o'g'li

Ilmiy bo'lim mutaxassisi, Buxoro innovatsiyalar universiteti

Annotatsiya: Sport va jismoniy faollik insonning ish faoliyati hamda ruhiy holatiga ijobiy ta'sir ko'rsatadi. So'nggi tadqiqotlar shuni ko'rsatmoqdaki, sportning barcha turlari insonning ish samaradorligi, stress darajasi va umumiy ruhiy salomatligi bilan bevosita bog'liq bo'lib, ular ijobiy ta'sir ko'rsatadi.

Kalit so'zlar: jismoniy faollik, ruhiy salomatlik, stressni kamaytirish, jamoaviylik ruhiyati, ijtimoiy integratsiya, motivatsiya, maqsad qo'yish, sport psixologiyasi, jamoaviy mashg'ulot.

Abstract: Sports and physical activity have a positive impact on an individual's work performance and mental well-being. Recent studies demonstrate that all types of sports are directly related to work productivity, stress levels, and overall mental health, exerting a beneficial effect on these aspects.

Key words: physical activity, mental health, stress reduction, team spirit, social integration, motivation, goal setting, sports psychology, team training.

Аннотация: Спорт и физическая активность положительно влияют на работоспособность и психическое состояние человека. Последние исследования показывают, что все виды спорта напрямую связаны с производительностью труда, уровнем стресса и общим психическим здоровьем человека, оказывая на них положительное влияние.

Ключевые слова: физическая активность, психическое здоровье, снижение стресса, командный дух, социальная интеграция, мотивация, постановка целей, спортивная психология, командные тренировки.

KIRISH

Jismoniy tarbiyaning ijtimoiy hodisa sifatida o'ziga xos xususiyati shundan iboratki, u jamiyatda insonning jismoniy qobiliyatlarini rivojlantiruvchi vosita sifatida xizmat qilishi bilan birga, uning ma'naviy kamolotiga ham kuchli ta'sir ko'rsatadi. O'zbekiston Respublikasida sport, xususan futbolni rivojlantirish bo'yicha qabul qilingan qaror va farmonlar yoshlar salomatligini mustahkamlashga qaratilgan davlat siyosatining yaqqol ifodasidir.

Abu Ubayd Abdalvohid ibn Muhammad al-Juzjoniy tomonidan qoldirilgan manbalarda qayd etilishicha, Markaziy Osiyoning buyuk olimi, o'rta asr uyg'onish davri vakillaridan biri Abu Ali ibn Sino 1002–1011-yillarda Xorazmshoh saroyida xizmat qilgan. U Xorazmshohning vaziri Abdulhasan Ahmad ibn Muhammad as-Sabah buyrug'i bilan "Tozalik haqida risola" nomli asar yozgan. Ushbu risola keyinchalik Ibn Sinoning dunyoga mashhur "Tib qonunlari" asariga asos bo'lgan.

Mazkur risola besh mustaqil bobdan iborat bo'lib: 1) toza havo, 2) hammom, 3) taom, 4) jismoniy harakat, 5) uyqu va tetiklik masalalarini qamrab olgan. Ibn Sino risolaning to'rtinchi bobida quyidagicha yozadi: "Jismoniy tarbiya mashqlari saviya va son jihatidan haddan tashqari uzoq davom etuvchi hamda kishini charchatadigan bo'lmasligi kerak. Ular juda tez bajarilishi ham ma'qul emas, chunki bu holatda qisqa davom etsada, insonga og'ir tuyuladi. Shuningdek, mashqlar haddan tashqari yengil bo'lsa ham, uzoq davom etsa, insonga juda qisqa bo'lib tuyulmasligi lozim".

Bu fikrlardan ko'rinib turibdiki, Abu Ali ibn Sino o'rta asrlardayoq jismoniy tarbiya mashg'ulotlarining inson hayotidagi ahamiyatini ilmiy-nazariy jihatdan asoslab bergan. Aynan shu nazariy qarashlarga tayanib, sobiq ittifoq davrida P.F. Lesgaft, L.P. Matveyev, N.G. Ozolin, V.M. Zatsiorskiy kabi sport pedagoglari va olimlari zamonaviy sport nazariyalarini ishlab chiqishgan va amaliyotga tadbiiq etishgan.



Bugungi kunga kelib, jahon sport jamoatchiligi, Osiyo va Xalqaro Olimpiya qo'mitalari hamda xalqaro sport federatsiyalari tomonidan O'zbekiston sportchilarining yutuqlari yuqori baholanmoqda. Ulardan ayrimlari quyidagilardir: shtangachi, sobiq jahon rekordchisi E. Karimov; bokschilar R. Rixsiyev, M. Abdullaev, J. Matchonov, R. Chagaev, A. Grigoryan, E. Qutbiboyev; dzyudochilar A. Bogdasarov, A. Tangriyev, R. Sobirov; yengil atletikachilar Irina va Tamara Press, V. Balyod, S. Ulmasova, A. Normurodov, R. Gataullin, A. Kuchmurodov, Z. Zayseva-Axtyamova, M. Sayfullayev; qilichboz S. Ruziev; chavandozlar M. Ismoilov, Yu. Kovshov; kurashchilar S. Xodiev, R. Ablaev, R. Kazakov, A. Taymazov, K. Fatxullin; suv polosi o'yinchisi E. Shagayev; basketbolchilar A. Jarmuhamedov, R. Salimova-Prokopenko; gimnastikachilar G. Shamray, S. Diyamedov, E. Saadi, O. Chusovitina, A. Kabanova, A. Fokin, Ye. Xilko; chang'ida uchish bo'yicha Olimpiada chempioni L. Cheryazova; shaxmat bo'yicha jahon chempioni R. Qosimjonov; akrobat aka-uka M. va T. To'lievlar; velosipedchi J. Abdujabborov va boshqa ko'plab sportchilar.

Ularning yutuqlari nafaqat sport maydonlarida, balki O'zbekistonning jahon sport xaritasidagi o'rnini mustahkamlashda muhim ahamiyat kasb etadi.

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

O'z-o'zini boshqara oladigan qobiliyatga ega bo'lgan sportchilar o'zlarining sport yo'nalishlari bo'yicha belgilangan yuksak natijalarga erishish uchun avtonom tarzda kun tartibini tuzadilar va musobaqalarga tayyorgarlikka ko'proq vaqt ajratadilar. "Immersion" (ya'ni to'liq sho'ng'ish) holati tushunchasi turli sohalarda qo'llaniladi. Sport sohasida esa bu atama jismoniy mashqlar bilan shug'ullanishni, tashqi omillardan ajralgan holda faqatgina mashqlarga e'tibor qaratish holatini anglatadi (Bong-cheol Kim, 2017–yil).

Csikszentmihalyi (1975–yil) ta'kidlashicha, jismoniy mashqlarga chuqur berilish darajasi mashqlar samaradorligi va jismoniy tayyorgarlikni oshirishda muhim rol o'ynaydi. Yuqori darajadagi jismoniy tayyorgarlikka ega sportchilar maqsadlar, kundalik mashg'ulotlar va o'yin jarayonidagi harakatlar haqida aniq tasavvurga ega bo'ladi. Shu bois ular mashqlar davomida havaskor sportchilarga nisbatan kamroq xatolarga yo'l qo'yadilar. Buning sababi sportchilarning mashq va o'yin jarayonlarida psixologik barqarorlik orqali o'z holatini boshqara olishlaridir.

Psixologik barqarorlik murabbiy va futbolchilar o'rtasidagi o'zaro ishonch va yetuklikni mustahkamlab, jamoa samaradorligini oshirishga xizmat qiladi (Jae-Xvan Li, 2009–yil).

O'z-o'zini boshqarish faqat o'yin samaradorligiga emas, balki mashg'ulotlarga jalb bo'lishga ham ta'sir qiladi. O'zini boshqara oladigan sportchilar mashqlarga chuqur e'tibor qaratib, puxta tayyorgarlik ko'rgan holda faol ishtirok etadilar (Jeong Xan-sol, 2020–yil).

Jismoniy mashqlarga muntazam e'tibor qaratgan shaxslarning mashq maqsadlariga erishish ehtimoli ortadi. Mashqlar natijasida yuzaga keladigan zavq, yutuq, faxr va g'urur kabi hissiy holatlar qoniqishni oshiradi (Hong Hee-sun, 2009–yil). Koreys madaniyatida "Mundong Minjokdo" atamasi jismoniy mashqlardan olinadigan hissiy qoniqishni anglatadi. U sport o'yinlariga shaxsiy va hissiy javoblar doirasini ham qamrab oladi (Jun-hyeon Song, Gye-yoon Li, 2000–yil).

Tadqiqotlarga ko'ra, sportdan qoniqish darajasi odatda pul mukofoti olmagan o'yinchilarda yuqoriroq bo'ladi (Kim Gyon Su, 1989–yil). Shuningdek, bu holat asosiy o'yinchilarga qaraganda jamoa sardorlarida yaqqolroq namoyon bo'ladi (Jung-gil Park, Ik-soo Mun, Chjon In Yoo, 2008–yil). Li Ki-jeol (2000–yil) o'z tadqiqotida shuni ta'kidlaydiki, jismoniy mashqlarning doimiy takroriyliqi qoniqish darajasida sezilarli farq keltirib chiqarmaydi.

Sport mahoratining oshib borishi bilan mashqlardan olinadigan qoniqish darajasi ham ortib boradi. Bu esa sportchining o'z-o'zini boshqarish darajasi va sport mahorati o'rtasidagi bevosita bog'liqlikni ko'rsatadi. Demak, mashqdan yuqori darajada qoniqish olish uchun samarali o'zini boshqarish strategiyalarini ishlab chiqish muhimdir.

Shaxsiy yoki jamoaviy maqsadlarga o'zini samarali boshqarish orqali erishilganida, yuqori qoniqish darajasi kuzatiladi. Bu esa sportchining ijobiy fikrlashi, ishonchi va katta maqsadlarni qo'yish qobiliyatiga zamin yaratadi.

Li An-min, Qin Du va Dong-Vu (1999–yil) ta'kidlashicha, sportchining sportga bo'lgan ishonchi uning o'z qobiliyatini obyektiv baholashi va amaldagi mashqlar yoki maqsadni to'g'ri anglay olishi bilan bog'liq. Subyektiv tajribalar asosida shakllangan xulosalar sportchining o'ziga bo'lgan ishonchini mustahkamlaydi.

O'ziga bo'lgan ishonchi yuqori bo'lgan sportchilar o'z imkoniyatlariga ishonch bilan yondashadi, faol fikrlashadi, harakat qiladi va belgilangan maqsadlarga erishadi. Aksincha, o'ziga ishonchi past bo'lgan futbolchilar ko'pincha o'z qobiliyatiga shubha bilan qaraganligi sababli, ruhiy jihatdan sustlashadi va o'yin jarayonida muvaffaqiyatsizlikka uchraydi. Boshqacha aytganda, ishonch – sportchining shaxsiy salohiyatini qanday namoyon etishi va uni rivojlantirish darajasini belgilovchi asosiy omillardan biridir (Koreya sport psixologiyasi assotsiatsiyasi, 2005–yil).

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Hozirgi kunda sportchilarning o'z-o'zini boshqarish qobiliyatining turli sport turlariga bo'lgan ishonchiga ta'siri bo'yicha ayrim ilmiy tadqiqotlar mavjud. Biroq aerobika sporti bilan bog'liq empirik tadqiqotlar yetarli emas. Shu sababli, aerobika dasturlariga qaratilgan ilmiy izlanishlarni tashkil etish muhim ilmiy va amaliy ahamiyatga ega.

Aerobika – bu musiqa jo'rligida muvofiqlashtirilgan qo'l va tana harakatlariga asoslangan, belgilangan qoidalarga muvofiq tarzda bajariladigan va qo'l yoki maxsus asbob-uskunalar yordamida shakllantiriladigan jismoniy mashqlar sportidir (Vang, Chàngjǎn, 2020–yil). Aerobika sportining o'zi ikki asosiy yo'nalishga bo'linadi: fitnes aerobikasi va musobaqa aerobikasi. Ayniqsa, musobaqaviy aerobika yuqori darajadagi texnik mahorat, ijodkorlik, jismoniy chidamlilik va psixologik barqarorlikni talab etadi. Bu sport turi uzoq muddatli, tizimli tayyorgarliklar va zamonaviy texnologiyalar asosida mashqlarni mukammal bajarish orqali sportchidan maksimal natijani kutadi.

Bugungi kunda aerobika bo'yicha mashg'ulotlarga qo'yilayotgan talablar oshib bormoqda, raqobatbardoshlik kuchaymoqda va sportchilar o'rtasidagi mahorat darajasidagi farqlar tobora sezilarli tus olmoqda. Bunday sharoitda sportchining o'z-o'zini boshqarish qobiliyati, psixologik fazilatlar hamda o'ziga bo'lgan ishonchi muhim ahamiyat kasb etadi.

Amalga oshirilayotgan tadqiqotlar o'z-o'zini boshqarish, mashq qilish majburiyati, mashqlardan qoniqish hamda sportga bo'lgan ishonch kabi omillarni o'rganishga qaratilgan. Ayni paytda bu boradagi ilmiy ishlar asosan kurash, taekvondo, basketbol, futbol, boulding, golf kabi sport turlariga yo'naltirilgan. Ammo aerobika sporti kontekstida bu yo'nalishlar yetarlicha yoritilmagan.

Mazkur tadqiqot doirasida O'zbekiston universitetlarining aerobik sportchilari o'rtasida quyidagi bog'liqliklar empirik jihatdan tahlil qilinmoqda:

1. O'z-o'zini boshqarish darajasi bilan sportga bo'lgan ishonch o'rtasidagi bog'liqlik;
2. Mashqlarni majburiyat deb qabul qilish holati bilan mashqlardan qoniqish darajasi o'rtasidagi sabab–oqibat munosabatlari;
3. Sportchilarning umumiy psixologik tayyorgarligi hamda funktsional ko'rsatkichlari o'rtasidagi tizimli aloqa.

Ushbu tadqiqotning asosiy maqsadi – O'zbekiston universitetlarida faoliyat yuritayotgan aerobika sportchilari mashg'ulotlarining sifatini oshirish, ularning o'ziga ishonchini mustahkamlash va yuqori sport natijalariga erishishga ko'maklashuvchi strategiyalarni ishlab chiqishdir.

TAHLIL VA NATIJALAR

Birinchidan, O'zbekiston universitetlarida gimnastika va aerobika sporti bilan shug'ullanayotgan ishtirokchilarning umumiy xususiyatlari asosida ularning o'z-o'zini boshqarish qobiliyati, mashq jarayonidagi ishtiroki, mashqlardan qoniqish darajasi va sportga bo'lgan ishonch ko'rsatkichlari o'rtasidagi farqlar tahlil qilindi.

Ikkinchidan, o'z-o'zini boshqarish, mashqlarga bo'lgan majburiyat, mashqdan olinadigan qoniqish va sportga bo'lgan ishonch o'rtasida sabab–oqibat munosabatlari aniqlanishi maqsad qilingan. Ushbu ko'rsatkichlarning bir-biriga ta'siri statistik tahlillar orqali baholandi.

Uchinchidan, mazkur omillar – o'z-o'zini boshqarish, mashq qilish majburiyati, mashqlardan qoniqish va sportga bo'lgan ishonch o'rtasidagi tizimli aloqadorlik o'rganildi. Natijalar ushbu omillar o'zaro chambarchas bog'liq ekanligini ko'rsatdi. Xususan, o'zini samarali boshqara oladigan sportchilar mashqlarga mas'uliyat bilan yondashib, yuqori qoniqish hissini boshdan kechiradilar va sportga nisbatan mustahkam ishonch namoyon etadilar.

Shu asosda, ushbu tadqiqot O'zbekiston universitetlari aerobik sportchilari mashg'ulotlarining funksional samaradorligini oshirish, ularning psixologik tayyorgarligini mustahkamlash va sport faoliyatini motivatsion jihatdan qo'llab-quvvatlash bo'yicha zarur bo'lgan asosiy ma'lumotlarni taqdim etishga qaratilgan.

XULOSA VA TAKLIFLAR

O'tkazilgan tadqiqot natijalari shuni ko'rsatmoqdaki, aerobika sporti bilan muntazam shug'ullanayotgan sportchilar orasida o'z-o'zini boshqarish darajasi, mashq qilishga bo'lgan mas'uliyat, mashqlardan olinadigan qoniqish va sportga bo'lgan ishonch o'rtasida bevosita va uzviy bog'liqlik mavjud. Tadqiqotda aniqlanishicha, yuqori psixologik barqarorlikka ega sportchilar mashqlarga ongli yondashadi, o'zlarining holatini boshqara oladilar va bu holat ularning sportdagi natijalarida ham ijobiy aks etadi.



O'zbekiston universitetlarida aerobika sporti ishtirokchilari orasida olib borilgan tahlillar shuni ko'rsatdiki, o'z-o'zini boshqarish qobiliyatini rivojlantirish mashg'ulotlar sifati va samaradorligini oshiradi. Sportchining o'ziga bo'lgan ishonchi faqat jismoniy tayyorgarlik bilan emas, balki ichki motivatsiya va mashq jarayonidan olinadigan emotsional qoniqish bilan ham uzviy bog'liqdir.

Bundan tashqari, adabiyotlar tahlili asosida aniqlanishicha, sportchilar orasidagi muvaffaqiyat farqlari ko'p jihatdan o'z-o'zini boshqarish strategiyalariga, sport psixologiyasiga asoslangan yondashuvlarga va individual yondashuv samaradorligiga bog'liqdir.

Takliflar:

1. Universitet sport dasturlarida o'z-o'zini boshqarishga doir maxsus treninglar joriy etilishi lozim. Bunday mashg'ulotlar sportchilarning o'z ustida ishlash madaniyatini oshiradi.
2. Mashqlardan qoniqish darajasini oshirish uchun individual yondashuvlarni kuchaytirish kerak. Sportchilarni faqat jismoniy emas, balki psixologik jihatdan ham rag'batlantiruvchi metodlar (mental tayyorgarlik, emotsional qo'llab-quvvatlash) yo'lga qo'yilishi zarur.
3. Sportga bo'lgan ishonchni oshirish maqsadida psixologik maslahat va motivatsion sessiyalar tashkil etilishi maqsadga muvofiq. Bu sportchilarning ichki salohiyatini ochish va ularni uzoq muddatli maqsadlar sari yo'naltirishga xizmat qiladi.
4. Aerobika sportini chuqur ilmiy tahlil qilish uchun empirik tadqiqotlar bazasini kengaytirish lozim. Anketalar, kuzatuvlar va tajriba asosidagi metodlardan foydalanish orqali sportchilarning holati chuqurroq baholanishi mumkin.
5. Sport psixologiyasi bo'yicha milliy kontent va uslubiy qo'llanmalar yaratish zamon talabi hisoblanadi. Bu nafaqat aerobika, balki boshqa sport turlarining ham rivojlanishiga zamin yaratadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Boymurodov N. Amaliy psixologiya. – T.: Yangi asr avlodi, 2009.
2. Eshnazarov J. Jismoniy madaniyat tarixi va boshqarish. – T.: Fan va texnologiya, 2008. – 388-bet.
3. Ibn Sino. Tib qonunlari. I kitob. – T.: Meditsina. – 135-bet.
4. Ibragimov X., Yo'ldoshev U., Boymirzayev X. Pedagogik psixologiya: o'quv qo'llanma. – T.: O'zbekiston faylasuflari milliy jamiyati nashriyoti, 2007. – 404-bet.
5. Ismoilov R., Sholomiskiy Yu. O'zbekistonda fizkultura tarixi. – T.: O'qituvchi, 1969. – 6–12-betlar.
6. Ismoilova Z.K. Tarbiyaviy ish metodikasi. – T.: Istiqol, 2003.
7. Ivanov P.U., Zufarova M.E. Umumiy psixologiya. – T.: O'zbekiston faylasuflari milliy jamiyati nashriyoti, 2008. – 472-bet.
8. Kornilov N. Najmiddin Kubro: Risola. – T.: Abdulla Qodiriy nomidagi Xalq merosi nashriyoti, 1995. – 32-bet.
9. Masharipov Y. Sport psixologiyasi: leksiyalar to'plami. – Samarqand: SamDU, 2003. – 128-bet.
10. Nuritdinov E.N. Odam fiziologiyasi. – T.: Aloqachi, 2008. – 510-bet.
11. Otajonov M. Psixoanaliz asoslari. – T.: O'zbekiston, 2004. – 141-bet.
12. Ochilov M., Ochilova N. Oliy maktab pedagogikasi. – T.: Aloqachi, 2008. – 264-bet.
13. Ochilov M., Ochilova N. O'qituvchi odobi. – T.: O'qituvchi, 1997.
14. Petrovskiy A.V. Umumiy psixologiya. – T.: O'qituvchi, 1975. – 449–472-betlar.
15. Qosimova R.A. Turizm va uni o'qitish metodikasi. – T.: Aloqachi, 2008. – 144-bet.
16. Rahimov S.R., Xalilov M.X. Umumiy psixologiya. I qism. – Samarqand: SamDU, 1978; II qism – 1979.

- 
- 13.00.00 Pedagogika fanlari
 - 13.00.01 Pedagogika nazariyasi. Pedagogik ta'limotlar tarixi
 - 13.00.02 Ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi (sohalar bo'yicha)
 - 13.00.03 Maxsus pedagogika
 - 13.00.04 Jismoniy tarbiya va sport mashg'ulotlari nazariyasi va metodikasi
 - 13.00.05 Kasb-hunar ta'limi nazariyasi va metodikasi
 - 13.00.06 Elektron ta'lim nazariyasi va metodikasi (ta'lim sohaları va bosqichlari bo'yicha)
 - 13.00.07 Ta'limda menejment
 - 13.00.08 Maktabgacha ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi
 - 13.00.09 Ijtimoiy pedagogika
 - 07.00.00 Tarix fanlari
 - 19.00.00 Psixologiya fanlari
 - 01.00.00 Fizika-matematika fanlari
 - 02.00.00 Kimyo fanlari
 - 03.00.00 Biologiya fanlari
 - 09.00.00 Falsafa fanlari
 - 10.00.00 Filologiya fanlari
 - 11.00.00 Geografiya fanlari



MAKTABGACHA VA MAKTAB TA'LIMI

Mas'ul muharrir: Ramzidin Ashurov

Ingliz tili muharriri: Murod Xoliyorov

Musahhih: Alibek Zokirov

Sahifalovchi va dizayner: Iskandar Islomov

2025. №7

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Maktabgacha va maktab ta'limi" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

"Maktabgacha va maktab ta'limi" jurnali 26.09.2023-yildan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan №C-5669363 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.
Litsenziya raqami: № 136361.

Manzilimiz: Toshkent shahar, Yunusobod tumani
19-mavze, 17-uy.